



O'ZBEK TILI O'QITISH DARSLARINI REJALASHTIRISH

Palimbetova Aybakhar Tursinbaevna

Nukus shahar 5-sonli maktab, Manaviy-marifiy ishlar
bo'yicha direktor o'rinbosari,
O'zbek tili (davlat tili) o'qituvchisi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-yanvar 2023 yil

Ma'qullandi: 20-yanvar 2023 yil

Nashr qilindi: 23-yanvar 2023 yil

KEY WORDS

til, leksik birlik, o'rganuvchi, til sohibi, dars jarayoni, darsni rejalashtirish.

ABSTRACT

Bugungi kunda fuqorolar o'rtasida o'zbek tlining keng qo'llanilishi va til maqomini yanada yuksaltirishga bo'lgan etibor kun sayin ortib bormoqda. Mazkur maqolada o'zbek tili o'qitish darslaringni rejalashtirish masalalariga to'xtalib o'tamiz.

Annotatsiya: Bugungi kunda fuqorolar o'rtasida o'zbek tlining keng qo'llanilishi va til maqomini yanada yuksaltirishga bo'lgan etibor kun sayin ortib bormoqda. Mazkur maqolada o'zbek tili o'qitish darslaringni rejalashtirish masalalariga to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: til, leksik birlik, o'rganuvchi, til sohibi, dars jarayoni, darsni rejalashtirish.

O'zbek tili darslarini to'g'ri, samarali va mazmunli tashkil etish va rejalashtirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Chunki darsni rejalashtirish jarayoni nafaqat o'qituvchining bilim va tajriba ko'nikmalariga, balki alohida e'tibor berilishi kerak bo'lgan bir qancha tashqi omillarga ham chambarchas bog'liqdir. Ushbu omillarga darsga tadbiq etilishi kerak bo'lgan til o'rgatish mezonlari, amalga oshirilishi talab etiladigan standartlar va o'quv dasturi kiradi. Shunday ekan, nimalarga amal qilsak, o'zbek tili darsini to'g'ri rejalashtira olamiz, degan savol tug'iladi.

Ma'lumki har bir mamlakatda davlat tili (ona tili) ni o'qitishda darsda o'qituvchi o'z oldiga qo'yadigan maqsadlar, ularga erishish yo'llari va erishilganlik darajasini tekshirish usullari haqida ma'lum bir tasavvurlar mavjud. Shu nuqtai nazardan, oxirgi o'n yil ichida ko'p mamlakatlarda bu borada til o'rganishga didaktik-metodik tamoyillar asosida yangicha yondashuv shakllandi. Bu boradagi asosiy hujjat sifatida mamlakatimizda o'zbek tilining milliy maqomini yanada mustaxkamlashga doir meyyoriy ta'lablarni asos qilib olinmoqda.

Bunda til o'rgatish va o'rganish jarayonida belgilanadigan maqsad sifatida "qila olmoq" ta'rifi yetakchilik qiladi, ya'ni o'qituvchi har bir darsi uchun o'z oldiga qo'yadigan maqsadga ushbu darsdan so'ng o'quvchi qilishi yoki o'rganishi kerak bo'lgan ko'nikmalarni emas, balki aynan erisha oladigan bilimlarni va amalda qo'llayoladigan malakalarni belgilaydi va dars jarayonini shunga qarab rejalashtiradi. Natijada til o'rganuvchi dars davomida turli holatlarda va hayotiy jarayonlarda o'zaro jonli muloqot qila olishni, shaxsiy fikrini erkin ifodalashni va boshqa millat va madaniyat vakillarining dunyoqarashi va mentalitetini baholab muloqotga kirishishni o'rganib boradi. Kommunikativ til bilish kompetensiyasiga asoslangan ushbu jarayonda turli hayotiy jabhalarga doir matnlarni ishlab chiqarish va yoki qabul qilishga

asoslangan holda jonli muloqot sharoitini yuzaga keltirib o'quvchilarni o'zaro muloqot qilish malakalarini muntazam ravishda bosqichma-bosqich rivojlantirib borish nazarda tutiladi.

Bu borada o'qituvchi o'z oldiga qo'yayotgan maqsadini to'g'ri anglab olishi uchun eng avvalo, kompetensiya so'zining mohiyatini to'g'ri tushunib olishimiz darkor.

Kompetensiya - fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir.

Kompetensiyalar - bu shaxsga harakatlarni amalga oshirishga imkon beradigan deklarativ bilimlar, protsessual ko'nikmalar va shaxsiyat bilan bog'liq malakalarning yig'indisidir.

Deklarativ bilim:

- haqiqiy bilim, faktlarga asoslangan holdagi bilimlar majmuasi(masalan, grammatik qoidalarini bilish yoki ma'lum bir madaniyat, jamiyatga xos xususiyatlarni to'g'ri anglash va tushunish;

Protsessual (mavjud, ega bo'lingan) ko'nikmalar bu - oz va ko'p miqdordagi avtomatlashtirilgan malaka ko'nikmasini anglatadi. Masalan, muayyan jamiyat til qoidalari va me'yorlarini avtomatik tarzda qo'llash;

Shaxsiy malaka bu - individual xususiyatlar, shaxsiyat xususiyatlari va munosabatlari yig'indisi. Bunga, masalan, maqsadli madaniyatga bo'lgan munosabat, tilni o'rganish motivatsiyasi va shunisgdek, ozmi-ko'pmi kamsuqumlik yoki o'ziga ishonch kabi barqaror shaxs omillari kiradi.

O'qituvchi o'quvchilarga malakaga ya'ni kompetensiyaga yo'nalgan bilim berishi uchun avvalo o'zi, o'rganilishi kerak bo'lgan o'quv materialiga o'quvchi nigohida qaray olishga odatlanishi kerak. O'qituvchi tomonidan taqdim etilayotgan o'quv materiallari soddadan murakkabga qarab tadrijiy qilib tayyorlanishi hamda har bir dars davomida va kundalik turmushda tez-tez qo'llanadigan so'zlar va iboralarni qamrab olishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ba'zan esa darsliklardagi berilgan o'quv materiallaridan biroz chekingan holda qo'shimcha materiallarni taqdim etish yanada samaraliroq natija beradi. Masalan, o'zbek tili o'rganuvchilari uchun milliy adabiyotimizning va zamonaviy nasrning yorqin namunalarining asarlari yoshlar hayotiga mosligi, turli til darajalariga moslab ishlanganligi, kundalik turmush muammolariga bog'liqligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, o'quvchilardagi kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda loyiha darslarini o'rni ham beqiyos. Bunda o'qituvchi darslarni maktab muhitidan tashqarida ya'ni aytaylik, muzeyda, ko'chada, tabiat qo'ynida tashkillash orqali o'quvchilarni yangicha muhitga olib kiradi, o'quvchilar jarayon ishtirokchilari sifatida intervyu, fotoalbom, sahna ko'rinishi tarzida o'z taqdimotlarini tayyorlashlari va tilni harakatga yo'nalganlik asosida o'zlashtirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi chet tili darslarini rejalashtirishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qilishi talab etiladi:

- Darsda o'quv materialini to'g'ri taqdim etish va uni o'quvchilarga yetkazib bera olish, toki dars oxirida o'quvchi o'rganilgan materialni qaytarib bera olsin, yani darsda va kundalik turmushda qo'llay olsin;

- O'quvchi o'rgangan bilim yozma va og'zaki nutq ko'rinishida namoyish qilinishi va baholanishi kerak;

- Taqdim etilayotgan materiallar tinglash ya'ni quloqlar orqali, yoki ko'rish, ya'ni ko'zlar orqali qabul qilishga asoslangan bo'lishi darkor.

Shuningdek, o'qituvchi darsda kommunikativ muhitni yaratishda quyidagilarga e'tibor qaratishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Darsda o'quvchilar uchun aytiladigan ko'rsatmalarni tarjima qilmaslik, ya'ni bunda o'quvchi aytilganlarni tushunishga mustaqil harakat qilsin.
2. Darsda o'quvchilar doimo bir o'rindiqda bir hil sinfdoshi bilan o'tirmay, aksincha turli guruh ishlari davomida turli sinfdoshlari bilan muloqotda bo'lishi darkor.
3. Aynan bitta o'quvchidan emas, sabr bilan barcha o'quvchidan so'rash, maqsadga muvofiqdir.
4. Yangi mavzuni tushuntirishda oldindan tanish bo'lgan narsalarga izoh berish shart emas. Chunki vazifamiz o'quvchi bilan birga o'ylash, o'quvchi uchun emas.
5. Guruh ishlari davomida natijani tekshirishni javob varaqasi yordamida guruhni o'ziga topshirish, individual nazoratdan biroz cheklanish.

Umuman olganda, o'qituvchi dars jarayonini rejalashtirishda o'quvchilar ushbu darsdan so'ng o'rganadigan aniq bilimlarni ko'zlagan holda harakat qilishi kerak. Buning uchun esa, o'qituvchidan ijodkor bo'lish, darsda bir hillikdan voz kechish va o'quvchini fanga qiziqтира olish mahoratini faollashtirish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://hozir.org/kompetensiya.html>
2. Karin Ende, Goethe-Institut.-München:Klett, 201
3. Methoden-Kiste. Thema im Unterricht/Extra Taschenbuch – 1. Januar 2010
4. Xodjayev M, Qahhorova Chet tili o'qitish metodikasi.-Fan va texnologiya: 2013
5. ogli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128.
6. Mukhammad, K. K., & ogli Melikuziev, A. L. (2022, December). THE ESSENCE OF NONVERBAL COMMUNICATION. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 19, pp. 91-93).